

Masjid odoblari



16:30 / 01.11.2018 17958

Ey, farzand!

Bu qismda masjidlarga aloqador odoblardan soʻz ochamiz. Masjidga borayotgan kishining har qadamiga savob yozilib, gunohlari afv etiladi.

Masjidga oʻng oyoq bilan kiriladi. Shu onda: «Allohim! Bizga rahmat eshiklarini ochgaysan!» deya duo qilinadi. Keyin chap oyoq ichkari olinadi. Agar masjid ichida odam boʻlsa, salom beriladi, boʻlmasa, shunday duoi salom qilinadi:

«Assalamu alayna va ala ibadillahis solihiyn»

Bundan soʻng uch bor:

«Subhanallohi val hamdu lillahi va la ilaha illallohu vallohu akbar. Va la havla va la quvvata illa billahil aliyil aziym» deb, masjidning muvofiq bir joyiga oʻtib, sunnat namozini oʻqigach, muazzinning qomat keltirishini kutadi. Muazzin qomat keltirgach, turib niyat qiladi, imomga ergashib, jamoat bilan namoz oʻqiydi.

Bu haqda Rasululloh sallollohu alayhi vasallam shunday deydilar:

«Alloh taolo namoz oʻqiliyotganda rahmatini imomga, uning oʻngiga, chapiga, orqasiga yogʻdiradi.

Jamoatga qo‘shilgan har kim o‘sha rahmatdan nasibasini oladi».

Jamoat savobiga to‘la sazovor bo‘lish uchun takbiri tahrimini imom bilan birga yoki undan so‘ng darhol aytishga g‘ayrat qilish kerak. Janob Payg‘ambarimiz sallolohu alayhi vasallam sahobalar masjidida to‘plangan bir kun shunday dedilar:

«Ey, sahobalarim! Siz, namozning ilk takbirining fazilati qanchaligini bilasizmi?»

U yerda qatnashayotganlardan Ali roziyallohu anhu shunday marhamat etdilar:

«Ey, Allohning Rasuli! Menimcha imom bilan birga olingan ilk takbir fazilati shunday: Bu dunyo islomga qarshi tajovuzkor holda bo‘lgan dushmanlarga liq to‘la bo‘lsa, bir kishi ular bilan jang qilib, ularni ta‘siriz qilib, muvaffaqiyatga erishsa, o‘sha kishi qozongan savob takbiri tahrimini imom bilan aytgan kishining savobiga teng bo‘lolmaydi».

Bundan so‘ng Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu shunday dedilar:

«Ey, Allohning Rasuli! Dunyo to‘la oltin, kumush kabi boyliklarim bo‘lsayu, hammasini sadaqa sifatida tarqatsam ham, baribir imom bilan birga aytilgan takbiri tahrini savobiga yetolmagan bo‘laman».

Bu savob darajasini u yerda qatnashgan sahobalar bir-bir aytib o‘tishgach, Payg‘ambarimiz sallolohu alayhi vasallam shunday dedilar:

«Menga Jabroil alayhissalom kelib shunday dedi: «Ey, Muhammad! Sizga Alloh taolo salom yo‘lladi va shunday marhamat etdi:

«Habibimga xushxabar bering! Barcha dengizlar siyoh va barcha daraxtunihollar qalam bo‘lsa, yeru ko‘kdagilar kotib bo‘lsalar va namozning takbiri tahrini imom bilan birga aytgan kishining savobini yozib borishsalar, bu yozishni qiyomatga qadar davom ettirsalar ham o‘sha kishi qozonadigan savobning o‘ndan birini yoza olmaydilar».

Ey, farzand!

Namozlarni jamoat bilan o‘qishga g‘ayrat qilish takbiri tahrimini imom bilan birga yoki imomga eng yaqin bir vaqtda aytishga kirishish va uning beaded fazilatlaridan bahramand bo‘lmoq kerak.

Oldinda bo‘sh joylar turib, orqada yangidan saf tortish makruhdir. Oldindagi bo‘sh joylarni to‘ldirish lozim. Bir o‘zi bir safni egallashga harakat qilish gunohdir.

Niyat qilayotganda bajariladigan ishning qalbdan kechirilishi va har bir ibodatning Alloh rizosi uchun ekanini o'ylash, tushunish juda muhim. Og'zaki niyat qiluvchi kishi qalbdan boshqa narsani kechirishi va boshqa narsalarni o'ylashi bilan namozi durust bo'lmaydi.

Niyat bilan barobar qo'llar yelka uzra ko'tarilib, bosh barmoqlar quloqlar yumshog'iga tegiziladi.

Vaqt o'tkazmasdan «Allohu Akbar!» deyiladi va qo'llar darhol bog'lanadi. Ko'zlar sajda qilinadigan joydan uzilmaydi. Namozda turgani bir on esdan chiqarilmaydi. Imom o'qigan oyatlar e'tibor bilan tinglanadi. Qalb boshqa narsalardan, dunyodan uziladi. Qo'l, panja qulluq uchun tayyor, shikasta bir holda turiladi.

Imom bilan birga jamoat rukuga boradi. Ayni shaklda sajdaga boriladi. Imomdan avval ruku va sajda qilmaslikka juda ham diqqat-e'tibor berish kerak. Imomga ergashib «Allohu Akbar!» deb ruku, sajda qilinadi. Rasululloh sallollohu alayhi vasallam shunday deydilar:

«Imomdan avval ruku va sajda qiluvchilarning boshi mahshar ahliga markab (ulov) boshiga o'xshatib, (aylantirib) ko'rsatiladi» (Alloh saqlasin).